

SOLIQ MAJBURIYATLARI IJROSINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI

TDIU mustaqil tadqiqotchisi

G.A.Mirzaalieva

Annotatsiya: Maqolada mahalliy byudjetlar daromad bazasini shakllanishi, unda yer solig'i va mulk solig'ining ahamiyati va ilmiy-amaliy asoslari yoritib berilgan. Mahalliy byudjetlar daromadlari barqarorligini ta'minlash imkoniyatlari asoslangan. Yer hamda mulk solig'ining mahalliy byudjetlar daromadlarini shakllantirishdagi ahamiyatini oshirish yuzasidan tartib va amaliy tavsiyalar taklif etildi. Bundan tashqari, mahalliy byudjet daromadlarini oshirish yo'llari bo'yicha tadqiqot olib borilgan bo'lib, mavzu doirasida iqtisodchi olimlarning tadqiqotlari o'rGANilib, xulosa va takliflar shakllantirildi.

Kalit so'zlar: yer, yer solig'i, ko'chmas mulk, mahalliy byudjet, mahalliy byudjet daromadlari, mahalliy hokimiyat organlari, mahalliy soliqlar, resurs soliqlari, soliq, byudjet, soliq stavkasi, soliq hisoboti, soliq tushumlari, soliq imtiyozlari.

Kirish: So'nggi yillarda rivojlangan davlatlarda va etakchi xalqaro moliya inctitutlari, ilmiy tadqiqot markazlari tomonidan soliqqa tortish mexanizmlarini takomillashtirish macalalari, Hususan, soliq yukini pasaytirish, soliq qarzdorligini kamaytirish mexanizmlarini takomillashtirish hamda soliqlarning o'z muddatida to'lanmaganligi uchun penyalar hisoblash mexanizmi va miqdorining optimal yo'llarini ishlab chiqish yuzasidan keng qamrovli ilmiy tadqiqotlarga alohida e'tibor qaratilmoqda.

O'zbekistonda soliq qarzdorligining kamayish tendensiyaciga qaramay, uni ko'paytirishga olib keladigan omillar, hususan, soliq qarzdorligini hisobdan chiqarish tartibini qo'llash, ma'lum darajada soliq to'lovchilarning soliq

majburiyatlari bajarilishini kechiktirish yoki qarzdorlikni to‘lashdan qochish holatlari saqlanib qolmoqda. Shu sababli, soliq qarzdorligini bartaraf etish yo‘llarini takomillashtirishga e’tibor berish davlat soliq xizmati idoralarining muhim vazifaci sifatida belgilab qo‘yilgan.

O‘zbekistonda soliq qarzdorligining kamayish tendensiyaciga qaramay, uni ko‘paytirishga olib keladigan omillar, xususan, soliq qarzdorligini hisobdan chiqarish tartibini qo‘llash, ma’lum darajada soliq to‘lovchilarning soliq majburiyatlari bajarilishini kechiktirish yoki qarzdorlikni to‘lashdan qochish holatlari saqlanib qolmoqda.

Soliq qonunchiligidan bo‘yicha soliqlarni to‘lash majburiyatini bajarmaclik soliq qarzini keltirib chiqaradi. Umumiyligi jihatdan olib qaralca, soliqlar paydo bo‘lishi bilanoq, soliq qarzini undirish muammosi ham paydo bo‘lgan. Ayrim olimlarning fikriga ko‘ra, soliq to‘lovchilarning soliqlar va soliq qarzini bir xil mazmunda tushunishi chalkashliklarni yuzaga keltirib chiqaradi. Hech bir sud organi yoki soliq organi soliqlarni undirmaydi yoki olib qo‘ymaydi. Faqatgina boqimanda (soliq qarzi) yoki penya jarimalar undiriladi xolos. Har kimning huquqiy ongiga buning umumiyligi jihatdan farqini, ya’ni soliqlar to‘lanadi, boqimanda (soliq qarzi) undiriladi degan tushunchani singdirish lozim. Hattoki, boqimanda ham undirilmay, balki ixtiyoriy ravishda to‘lanishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 29-dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ- 741 - sonli Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 25-maydagagi “Hisob-kitob tizimini takomillashtirish va xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning to‘lov intizomini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-141-sonli Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 9-sentyabrdagi “Ta’sirchan soliq mexanizmini qo‘llash natijasida hosil bo‘lgan soliq qarzini hisobdan chiqarish to‘g‘risida”gi PF-218-sin Farmonini qabul qilinishi jismoniy shaxslardan olinadan soliqlarni undirish mexanizmini takomillarshtirishni muxim

bosqichi hisoblanadi. Xususan, manfaatdor shaxs soliq to‘lashni kechiktirish huquqi to‘g‘risidagi xabarnomani yer uchastkalari, binolar va inshootlarga bo‘lgan mulk huquqi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan kundan e’tiboran uch oy ichida soliq to‘lovchining shaxsiy kabineti orqali yer uchastkalari, binolar va inshootlarga bo‘lgan mulk huquqi davlat ro‘yxatidan o‘tganligining qayd raqamini va sanasini ko‘rsatgan holda soliq organlariga yubororilishi, kechiktirish yoki bo‘lib-bo‘lib to‘lash davrida amalda bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining qayta moliyalashtirish stavkasiga teng stavkadan kelib chiqqan holda, 50 foizi miqdorida foizlar hisoblanishi Soliq kodeksining 100-moddasiga kiritildi. Umumi ovqatlanish korxonalariga aylanmadan olinadigan soliq, foyda solig‘i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i, yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq bo‘yicha yuzaga kelgan qarzdorlikni, shuningdek barcha soliqlar va yig‘imlar bo‘yicha jarimalar hamda penyalarni mahalliy davlat hokimiyyati organlariga ariza yubormasdan, soliq organlarini xabardor qilgan holda foizlarni to‘lamasdan, teng ulushlarda kechiktirib (bo‘lib-bo‘lib) to‘lash huquqi berish yuzasidan berilgan takliflari Soliq kodeksining 482-moddasidaga aks etdi. Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning to‘lov intizomini yanada mustahkamlash maqsadida tijorat banklarida ochilgan qonunchilik hujjatlariga muvofiq undiruvga yo‘l qo‘yilmaydigan maxsus maqsadli hisobvaraqlari tugatish, bunda tugatilgan maxsus maqsadli hisobvaraqlaridagi mablag‘lar qoldig‘i ularning asosiy yoki ikkilamchi hisobvaraqlariga o‘tkazish vakolatini Vazirlar Mahkamasining qarori asosida tartibga solinish O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 25 maydagги PF-141-sonli Farmonida tasdiqlandi. Bundan tashqari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 9-sentyabrdagi PF-218-son Farmonida tasdiqlanib, foydalanimayotgan ob’ektlar mulkdorlariga nisbatan oshirilgan stavkalarda qo‘llanilgan ta’sirchan soliq mexanizmi natijasida hosil bo‘lgan mol-mulk solig‘i va yer solig‘i bo‘yicha mavjud soliq qarzi hisobdan chiqarilishi hamda soliq qarzini undirish bilan bog‘liq sud va ijro ishlari tugatish

kiritish vakolati berildi.

Xulosa va takliflar: Mamlakatimiz iqtisodiyotini raqamlashtirishning rivojlanishi sharoitida davlat soliq xizmati organlari tomonidan soliq qarzdorligini undirish ma'murchiligidagi har bir yo'nalihsda soliqlarni majburiy undirish uchun nazorat ishlarini, ya'ni mas'ul bo'lgan tashkilotlarga ayniqsa xizmat ko'rsatayotgan bank muassasalari javobgarligini kuchaytirish ya'ni barcha bosqichlarni elektron shaklga o'tkazish, mavjudlarini yanada takomillashtirish lozim.

Shuningdek, jismoniy shaxslarning soliq qarzini undirishdagi mavjud muammo va kamchiliklarning amaldagi holatini xorij tajribasi bilan taqqoslab, soliqlar belgilangan muddatida to'lanmaganligi uchun hisoblanadigan penya miqdorini soliqlarning rag'batlantiruvchi funksiyasi doirasida mamlakatda mavjud inflyatsiya darajasini hisobga olib, qarzdorlikning paydo bo'lish sabablaridan kelib chiqqan holda qisqartirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagagi «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi PF-4947-sonli Farmoni.

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi- Toshkent: G'afur G'ulom nashriyot uyi 2020.- 640 b.

Normurzaev U. (2021). Analiz effektivnosti nalogovyx lgot i preferensiy v podderjke opredelennyx sektorov s selyu dalneyshego povysheniya investitsionnoy privilekatenosti v Uzbekistane. Ekonomika i obrazovanie, (6), 82–86. izvlecheno ot <https://cedr.tsue.uz/index.php/journal /article/view/285>

Normurzaev U. (2021). Puti effektivnogo ispolzovaniya nalogovyx lgot dlya podderjki predprinimateley. Ekonomika i innovatsionnye texnologii, (4), 355–362. izvlecheno ot https://inlibrary.uz/index.php/economics_and_innovative/article/view/11954